

OZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI
SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI

Qo'l yozma huquqida

Genetika, seleksiya va urug'chilik kafedrası

BERDIMURODOVA MA`MURAning
Makkajo`xori geterozisli duragaylarining o`shishi, rivojlanishi va
maxsuldorligini o`rganish

5A410401 - Seleksiyasi va urug'chiligi mutaxassisligi bo'yicha
magistr darajasini olish uchun

MAGISTRLIK DISSERTASIYASI

Ilmiy rahbar professor

D.T. Abdukarimov

SAMARQAND 2015

MUNDARIJA

	KIRISH	4
I Bob..	ADABIYOTLAR SHARHI	6
1.1.	Makkajo‘xoring kelib chiqish tarixi, tarqalishi va klassifikatsiyasi	6
1.2.	Makkajo‘xori seleksiyasi vazifalari va yo‘nalishlari	12
1.3.	Makkajo‘xori seleksiyasi uchun boshlang‘ich material va qo‘llaniladigan usullari.	17
1.4.	Makkajo‘xoring geterozisli urug‘larini olish usullari	21
1.5.	O‘zbekistonda makkajo‘xori seleksiyasi soxasida erishilgan yutuqlar	28
2. Bob	TAJRIBANING O‘TKAZISH SHAROITI VA METODIKASI	32
2.1.	Iqlim sharoitining qisqacha tavsifi	32
2.2.	Tajriba dalasining tuproq sharoiti	37
2.3.	Tadqiqotlar obyekti va uslubi	38
3 Bob.	TADQIQOT NATIJALARI	41
	Makkajuxori geterozisli duragaylarining usishi,rivojlanishi va maxsuldorligini urganish	41
3.1.	Makkajo‘xori geterozisli duragaylarining o‘sov davrida rivojlanish xususiyatlari	41
3.2.	Makkajo‘xori geterozisli duragaylarining o‘simlik balandligi va birinchi so‘tani joylashish.	43
3.3.	Makkajo‘xor geterozisli duragaylarining maxsuldorlik kursatgichlari va don hosildorligi.	45
3.4.	Makkajo‘xori geterozisli duragaylarini yetishtirishda iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari	48

	XULOSALAR	53
	ISHLAB CHIQRISHGA TAVSIYALAR	54
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI	55
	Ilova	63

**Ministry of Agriculture and Water Resources of the Republic of Uzbekistan
Samarkand agricultural institute**

**Agranomiya genetics graduate
student at the Faculty: 2014-2015**

**Chair of selection and seed
Berdimuradov Israilov**

Ma'mura

scientific leader of the academic year:

D.T. Abdukarimov

Speciality:

5A410401 - selection and

Master's thesis Annotasiyasi

Topic: corn for grain, silage, green mass for large-scale planted. Area of 34.1 thousand hectares of cultivated for grain yield was 45.9 quintals per hectare. Experts, farmers know these crops, the main crops as corn and other crops stubble after grain silos for mass production, as well as blue mass and achieve higher crop to grow. Was preceded by a lot of good for the crops of maize crop sowing due to a number between replacement field is of great importance.

The main objective of the study: Corn hybrids geterozisli valuable character growth, development and grain yield of zoning kind of production compared with the standard recommended

Research objectives: the development of corn hybrids geterozisli growth period, plant height, and the first to take a position, take a resolution of 1000 the number of cobs and kernels of grain weight and grain yield and economic efficiency indicators.

Object and subject of the research: Research facilities in the territory of the

Republic of Uzbekistan as makkajo`xorining included in the State register of agricultural crops recommended for sowing geterozisli hybrids used.

Brief description of the methods used in the study: observation experiments were conducted in hybrids, to determine the reliability of the measurement results and high seed yield of BADospexovning "Methodical polevogo Opitz" Dispersion analysis of the methods used.

To try out new varieties of agricultural crops in the Republic of Uzbekistan in the style of the DNS Commission (1974) and the whole of Russia. O'ITI (1991).

Research results of the theoretical and practical importance: For the first time Pasdargom district of Samarkand region "section of the" MMTP economy corn hybrids geterotazisli studied. Research results have great practical significance of the data collected as a result of the introduction of the production will help to reduce production costs and a plentiful harvest.

Scientific novelty of the research: Samarkand virgin soil conditions typical of irrigated corn

**Berdimurodova Mamuraninig « Makkajuxori geterozisli duragaylarining o'sishi, rivojlanishi va mahsuldorligini o'rganish» mavzusidagi magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan magistrlik dissertasiyasiga
T A Q R I Z.**

Respublikamiz seleksioner olimlari mamlakatimiz donchiligini rivojlantirishda xorijiy davlatlar seleksionerlari bilan xamkorlikda mamlakatimiz iqlim sharoitiga mos makkajo`xori geterozisli duragaylarini yaratish borasida ilmiy ishlar olib bormoqdalar

Makkajo`xori dunyo dehqonchiligida ekiladigan asosiy qishloq xo'jalik ekinlaridan biri hisoblanadi. Uning doni dunyodagi don balansida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Makkajo`xori xalq xo'jaligida juda katta ahamiyatga ega bo'lib, undan uzoq yillardan buyon insoniyat oziq-ovqat va chorva mollari uchun ozuqabop ekin sifatida foydalanib kelmoqda. O'zbekistonda makkajo`xori gen kolleksiyasidan samarali foydalanish natijasida, makkajo`xorining tezpishar, hosildor, kasallik va zararkunandalarga chidamli yangi nav va duragaylari yaratilmoqda.

Tadqiqotning asosiy maqsadi makkajo`xorining geterozisli duragaylarining qimmatli belgi xususiyatlarini o'sishi, rivojlanishi va don hosildorligini rayonlashtirilgan standart navi bilan taqqoslab ishlab

chiqarishga tavsiya etishdan iborat. Qishloq xo'jalik ekinlaridan bir yilda ikki marta hosil olish uchun tezpishar, serhosil, kasallik va zararkunandalarga chidamli navlarga bo'lgan talab kun sayin ortib bormoqda

Ushbu dissertasiya ishida makkajo'xori geterozisli duragaylarining o'sishi, rivojlanishi va mahsuldorligini o'rganilgan. Dala tajribalari uslubiy jihatdan to'g'ri ko'yilgan bo'lib, olingan ma'lumotlar tahlil qilinib jadvallarda yoritilgan. Ishda ayrim orfografik va grammatik xatolar uchraydi, rasm va diagrammalardan foydalanigan. Ish mazmunidan kelib chikib xulosa va ishlab chikarishga tavsiyalar qilingan.

Mazkur magistrlik dissertasiyasi OAK talablariga javob beradi. Magistr Berdimurodova Mamura tomonidan bajarilgan magistrlik dissertasiyasini asosiy ximoyaga tavsiya etaman.

Cabzavot va poliz ekinlari

Samarkand tayanch punkti k.x.f.n Sh Jabborov

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. I.A.Karimov qayd etganidek, mamlakatimizda “Don yetishtirishni ko‘paytirib borishga qaratilgan chuqur ijobiy siljishlarni amalga oshirish” borasida davlat ahamiyatiga molik bo‘lgan strategik yo‘lning tanlanganligi va uning izchillik bilan turmushga tadbqiq qilinishi O‘zbekistonning hamma viloyatlarida samarali olib borilmoqda.

O‘zbekistonda makkajo‘xori don uchun, silos uchun, ko‘k massa olish uchun keng ko‘lamda ekiladi. Don uchun ekiladigan maydoni 34,1 ming gektar, hosildorligi gektaridan 45,9 sentnerni tashkil qildi. O‘zbekistonda mutaxassislar, dehqonlar bu ekinni yaxshi bilib, asosiy ekin sifatida don uchun hamda ang‘izda boshqa ekinlardan so‘ng ham don ham silos massasini yetishtirish uchun, ham ko‘k massa o‘stirib yuqori hosil olishga erishmoqdalar. Makkajo‘xori bir qancha ekinlar uchun yaxshi o‘tmishdosh ekin bo‘lib, qator oralari ishlanishi tufayli, almashlab ekishda agrotexnik ahamiyati kattadir.

Tadqiqotning asosiy maqsadi. Makkajo‘xorining geterozisli duragaylarining qimmatli belgi xususiyatlarini o‘sishi, rivojlanishi va don hosildorligini rayonlashtirilgan standart navi bilan taqqoslab ishlab chiqarishga tavsiya etish

Tadqiqot vazifalari. Makkajo‘xori geterozisli duragaylarining o‘suv davrida rivojlanish xususiyatlari, o‘simlik balandligi va birinchi so‘tani joylashish, so‘ta o‘lchamlari hamda so‘tadagi donlar soni, 1000 ta don og‘irligi va don hosildorligi xamda iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini o‘rganish.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Tadqiqotlar obyekti sifatida makkajo‘xorining O‘zbekiston Respublikasi hududida ekish uchun tavsiya etilgan Qishloq xo‘jalik ekinlari Davlat reyestriga kiritilgan geterozisli duragaylaridan foydalanildi.

Tadqiqotda qo‘llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi; Tajribalarni o‘tkazishda o‘rganilgan duragaylarini kuzatish, o‘lchash va yuqori urug‘ hosildorligi natijalarining ishonchliligini aniqlash, B.A.Dospexovning “Metodika polevogo opita” dispersion tahlil qilish uslubidan foydalanildi.

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jalik ekinlarining yangi navlarini sinash bo'yicha DNS komissiyasining uslubi (1974) va ButunRossiya.O'ITI (1991).

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlar. Makkajo'xorining 10 ta geterozisli duragaylarining o'sishi, rivojlanishi va maxsuldorligi o'rganildi

Mavzu buyicha adabiyotlarning kiskacha taxlili. I.V. Massino, A.I. Massino (1998) X.N. Atabayeva (2006) G.Ye. Shmarayev(1999) Bliyev S.G.(1997) Axmedova S., Turakulov K.(1997) Guryev B.P., Kozubenko L.V(1989) Kimsanov I., Absamatov S. (1998) Axmedova S.M., K.Ashurov(2007) larning ma'lumoticha makkajo'xorining serhosil, ertapishar, suvsizlikka, sho'rga, kasallik va zararkunandalarga chidamli nav va duragaylarini urganildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati; Birinchi marta Samarqand viloyatining Pasdargom tumani "Bobir" MMTP xujaligida makkajo'xori geterotazisli duragaylarini o'rganildi. Tadqiqot natijasida to'plangan ma'lumotlar katta amaliy ahamiyatga ega bo'lib olingan natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish mahsulot tannarxini pasaytirishga hamda mo'l hosil olishga ko'maklashadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Samarqand viloyatining sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlari sharoitida makkajo'xori geterozisli duragaylarining o'sishi, rivojlanishi va maxsuldorligi o'rganildi.

Dissertasiya tarkibining qisqacha tavsifi. Ishning tuzilishi. Dissertasiya kopyuterda yozilgan, -- betdan iborat bo'lib, 5- bob, bo'lim, 10 - ta jadval, 6- ta rasm, 4 - ta diagramma, 78-ta adabiyotlar, shundan 12 - tasi horijiy adabiyotlar ro'yxatidan va ilovalardan iborat.

Samarqand qishloq xo'jalik institutining aprobasiya komissiyasi tomonidan (2014-2015 yy.) ko'rikdan o'tkazilgan. Tadqiqot natijalari bo'yicha hammaulliflar bilan hamkorlikda 3 ta ilmiy maqola chop etilgan

1-Bob. ADABIYOTLAR SHARHI

1.1.Makkajo‘xorining kelib chiqish tarixi, tarqalishi va klassifikatsiyasi

Eramizdan 4000 yil ilgari Amerika qit‘asida yashagan barcha qabilalar makkajo‘xoridan keng foydalanganlar, ular uchun bu ekin birdan-bir non ekini hisoblangan.

Makkajo‘xori Yevropaga 15 asrning oxirida olib kelingan. Dastlabki vaqtlarda u noyob ekin sifatida uy atrofini bezash uchun ekilgan. Ko‘p vaqt o‘tmay makkajo‘xori Fransiya, Italiya, Portugaliya mamlakatlarida avval oziq-ovqat, keyinroq yem-xashak ekini sifatida tarqalgan.

XVI asrda makkajo‘xori Afrika, Hindiston, va Xitoyga yetib borgan. Rossiyada XVII asrdan boshlab ekilgan. Lekin uni XVII asrning ikkinchi yarmiga qadar poliz ekini sifatida ekilgan (Sharipov Yu,1987).

Makkajo‘xori yangi dunyoning juda qadimgi o‘simliklaridan hisoblanadi. Uning vatani Janubiy Amerikadir. XV-Ispaniyaga olib kelib ekilgan. Bu yerdan Yevropa mamlakatlariga, Yevropadan esa Xitoy va Hindistonga tarqalgan. Meksikada arxeologik qazilmalarda makkajo‘xorining 5000 yillik donlari topilgan.

Markaziy Osiyoga makkajo‘xori XVIII-asr oxiri XIX-asr boshlaridan boshlab yetishtirila boshlandi. Musulmon mamlakatlari o‘rtasida savdo-sotiq va diniy aloqalarning mavjudligiga asoslanib makkajo‘xori ilk bor. Amudaryo va Sirdaryo oralig‘ida o‘sha davrda keng miqyosda yetishtirilgan bo‘lib, Kichik Osiyodan Eron va Afg‘oniston orqali kirib kelgan deb taxmin qilinadi. “Makkajo‘xori” shahar va jo‘xori so‘zlaridan olingan. Bu nom yuqoridagi fikrlarimizni tasdiqlaydi, ya’ni musulmonlarning Makka va Madinaga qilgan haj safari chog‘ida ushbu o‘simlik karvonlar bilan Kichik Osiyodan bizga kirib kelgan.

1899 yilda Stertevant tomonidan tavsiya etilgan klassifikatsiyaga ko‘ra endosperma va don morfologiyasi bo‘yicha 7 ta kenja to‘rga bo‘linadi.

Tishsimon (Zea mayse L intentanta). Doni yirik, cho‘zinchoq tepa uchida chuqurchasi bor, shakli otning tishiga o‘xshaydi.

Endosperm donining yon tomonlarida shoxsimon, o'rtasida ipsimon bo'ladi. Doni asosan hayvon ozuqasi uchun va spirt olish uchun foydalaniladi.

Kremniysimon (*Zea mays L indurate*). Doni yumshoq, yon tomondan sal siqiq, yaltiroq qattiq. Donning o'rtasi unsimon, endosperm bo'ladi. Kremniysimon makkajo'xori navlari donidan un tayyorlanadi. Poyasi ko'k massa holida mayin bo'ladi va hayvonlar yaxshi yeydi. Tezpushar navlari ko'p.

Kraxmalli (*Na mays L amulaua*). Donining shakli kremniysimonga o'xshash, ichki qismi unsimon, endosperm bilan to'la shoxsimon endosperm yo'q yoki juda yupqa donida kraxmal 72-88 foiz, oqsil 12 foiz, yog' 5 foiz. Doni kraxmal, spirt va yog' ishlab chiqarish sanoati uchun yaxshi xom-ashyo hisoblanadi.

Shirin (*Zea mays L souaharata*). Doni yirik, usti tirish ustki qismi shoxsimon endosperm bilan to'la. Donida 18-20 foiz oqsil, 64 foiz uglevodlar, 8-9 foiz yog' bo'ladi. Sabzavot ekini hisoblanadi.

Yoruvchan (*Zea mays L Iverta*). Doni mayda, shoxsimon endosperm bilan to'la. Quruq doni qovurilganda yorilib bodroq hosil qiladi va hajmi 15-20 marta kattalashadi. Yorma va bodroq tayyorlash uchun foydalaniladi.

Yuqoridagilardan tashqari mumsimon (*Zea mays L ceretina*), po'stli (*Zea mays L funicata*), kraxmalli-shirin (*Zea mays L amylea- saecharata*) kenja turlari ham bor.

O'zbekistonda asosan tishsimon va kremniysimon kenja turlar ekiladi. (Atabayeva X.N., Mascino I.V.2005).

Dunyo bo'yicha yetishtiriladigan makkajo'xorining 44 % i AQShda ishlab chiqariladi. 2002 yilda u yerda ushbu o'simlik 29 mln gektardan ziyod maydonga ekilgan bo'lib, uning don hosildorligi o'rtacha 89.3 s/ga ni tashkil etadi. O'zbekistonda makkajo'xori 2002 yilda don uchun 25 ming gektar maydonda yetishtirilgan, bunda uning hosildorligi atigi 16 s/ga ni tashkil etgan.

FAO (Xalqaro qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tashkiloti) ma'lumotlariga ko'ra 2002 yilda makkajo'xori dunyo bo'yicha 137 mln gektardan ziyod maydonga ekilgan, uning yalpi don hosili 600 mln tonnani tashkil qilgan.

Ishlab chiqarilayotgan makkajo‘xori donining 60 % dan ortig‘i sanoatlashgan Shimoliy Amerika va Yevropa mamlakatlari ulushiga to‘g‘ri keladi, bu yerda uning hosildorligi o‘rtacha 54-72 s/ga ni tashkil etadi.

Makkajo‘xori xalq xo‘jaligida juda katta ahamiyatiga ega bo‘lib, undan uzoq yillardan buyon insoniyat oziq-ovqat va chorva mollari uchun ozuqabop ekin sifatida foydalanilib kelmoqda. Bugungi kunda makkajo‘xori qayta ishlash sanoati uchun eng asosiy xom-ashyo hisoblanadi. Makkajo‘xoridan don va ko‘k massa olishdan tashqari undan kepek, krupa, kunjara, shakar va yog‘ kabi qo‘shimcha mahsulotlar ham olinadi. XXI asrning boshlarida makka-jo‘xoridan don hosili yetishtirishni dunyo bo‘yicha 500 mln tonnaga yetkazish nazarda tutilgan .

R.U. Yugenxaymer (1999) ma’lumoticha AQSh da 70-yil o‘rtalarida makkajo‘xoridan 500 turdan ortiq asosiy va qo‘shimcha mahsulotlar olingan. Bu ko‘rsatkich 1996 yilga kelib 1600 taga yetgan. Makkajo‘xoridan olinadigan mahsulot turlari chorvachilik sanoatida va oziq-ovqat ishlab chiqarishda foydalaniladi .

I.V. Massino (2001.) tomonidan O‘zbekistonni turli iqlim sharoitida barcha ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan yangi “O‘zbekiston 100” duragayi, Respublikaning hamma viloyatlarida, keyinchalik Turkmaniston va Armaniston respublikalarida tumanlashtirilgan.

I.V. Massino, A.I. Massino (1998) ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Davlat Reyestriga makkajo‘xori duragaylarining 20 dan ortiq mahalliy va xorijiy navlari ro‘yxatga kiritilgan. Respublikamizda urug‘ yetishtirish uchun ulardan faqat mahalliy navlarning duragaylari ekilmoq-da. O‘zbekistonda makkajo‘xori gen kolleksiyasidan samarali foydalanish natijasida, makkajo‘xorining tezpishar, hosildor, kasallik va zararkunan-dalarga chidamli yangi nav va duragaylari yaratilmoqda. Shuningdek, makka-jo‘xorining yangi nav va duragaylarini yaratishda chetdan keltirilgan dura-gaylar nazorat mahalliy duragaylar bilan taqqoslanib, eng yaxshi ko‘rsat-kichlari o‘rganilib, makkajo‘xori seleksiyasida keng foydalanilmoqda.

X.N. Atabayeva, I.V. Massino (2006) ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda qishloq xo'jaligida foydalaniladigan umumiy yerlarning 60% ga yaqini turli darajada sho'rlangan.

I.V. Massino, S.M. Ahmedova (2004). kabi seleksionerlar tomonidan O'zbekiston iqlim sharoitida takroriy ekin sifatida don va silos uchun "O'zbekiston 306 AMV" duragayi yaratildi. Bu ikki tizmalararo duragayni o'rtacha don hosildorligi 74,0 s/ga bo'lib, 108 kunda pishadi .

Moldaviyada T.S.Chalyk makkajo'xorini ertapishar "Moldavskiy 215 MV", "Moldavskiy 257 MV", "Moldavskiy 296 SV" kabi duragaylarni yaratgan va tumanlashtirishga o'z hissasini qo'shgan.

Dunyoda makkajo'xorining yuqori lizinli ertapishar duragaylarini yaratishga o'tgan asrning 80-yillaridan boshlab e'tibor berila boshlandi.

Amerikalik olimlar tomonidan, makkajo'xori donining oqsil tarkibi-da lizin moddasi yuqori bo'lgan Opeyk 2 genining yaratilishi, makkajo'xori seleksiyasida yangi yo'nalishni yaratdi. Makkajo'xori donining oqsil tarkibida lizin moddasi yuqori bo'lgan navlari yo'q.

Ostanaqulov T.E (2005) ta'kidlashicha lizin moddasi almashtirib bo'lmaydigan aminokislotalar guruhiga kiradi. Shu sababli soha seleksionerlari makkajo'xori donining oqsil tarkibida lizin moddasi yuqori bo'lgan navlar yaratish uchun ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar.

G.Ye. Shmarayev(1999) ma'lumotlariga ko'ra, Rossiyaning barcha ilmiy-tadqiqot markazlari makkajo'xori seleksiyasida yangi yo'nalish donini oqsil tarkibida lizin aminokislotalari odatdagidan ko'proq tutuvchi duragaylarni yaratish bilan shug'ullanishgan. Rossiyalik olimlar tomonidan Opeyk 2 geni asosida yuqori lizinli "B 248" va "A 51 S" duragaylari yaratilgan.

I.V. Massino, A.I. Massinolarni(2006)aniqlashicha, yuqori lizinli makkajo'xori duragaylaridan yuqori hosildor, sifatli urug'larini yetishtirish chorvachilik va parandachilikni to'yimli ozuqa bilan ta'minlash borasida iqtisodiy islohatlarni rivojlantirish muhim o'rin tutadi. Tajribalar natijasiga ko'ra qishloq xo'jaligi parandalari lizin miqdori ko'p bo'lgan don bilan

oziqlantirilganda, tirik vazni 12-20% o'sishi va ozuqa birligini 6-8% pasayishi aniqlandi .

N.I. Lixachev, A.I. Borovik o'z tajribalarida Altay o'lkasi iqlim sharoitida "Nart 150 SV", "Obskiy 150 SV", "Kollektivnyy 160" va "Omskiy 140" ertapishar duragaylarining ota-ona tizmalarini birlamchi urug'chiligini o'rganishgan. Ular Oltoy o'lkasi mahalliy iqlim sharoitida, ertapishar duragaylardan faqat sug'oriladigan joylaridagina yuqori don hosildorligiga erishishgan. Eng yuqori don hosildorligi lalmi joylarda 50 s/ga bo'lgan bo'lsa, sug'oriladigan joylarda 90 s/ga bo'lganligi tajribalarda kuzatilgan.

Bliyev S.G.(1997) va boshqalarning fikricha o'z-o'zidan changlatilgan tizma, duragay va navlardan o'zining genotipi va fenotipi bilan, hayotchanligi va mahsuldorligini pastligi bilan karakterlanadi. Ishlab chiqarishda makkajo'xori duragay urug'larini ekishga o'tilishi, ko'pchilik tadqiqotchi-larning asosiy e'tiborini duragaylarni o'rganishga sababchi bo'ldi.

Axmedova S., Turakulov K.(1997) larning ilmiy adabiyotlarda duragaylar ona-ota juftlarini yetishtirish agro-texnikasi usullari to'g'risidagi ilk ma'lumotlar 60-yillardan paydo bo'la boshladi. O'zbekistonning sug'oriladigan issiq iqlim sharoitida ham o'z-o'zidan changlantirilib olingan tizmalar (makkajo'xori duragaylari ona-ota juftlari) hosildorligi juda past, ya'ni 10-12 s/ga ni tashkil etadi.

Duragaylash ko'chatzorini yetarli miqdordagi urug'lik bilan ta'minlashda ota-ona juftlari urug'ini ko'paytirish uchun katta maydonlar talab etiladi. (Atabayeva X.N., Mascino I.V.2005).

Ukraina makkajo'xorichilik ilmiy-tadqiqot institutining tajriba stansiyasidagi tajribalarda "OK 30/4", "A 619", "V 77" tizma-larining eng ko'p don hosil qilishi va o'simlikni yuqori mahsuldorligi ko'chat qalinligi 60 ming/ga tup o'simlik joylashtirilgan variantda kuza-tilgan.

Guryev B.P., Kozubenko L.V(1989) Ukrainaning cho'l mintaqasida, ertapishar o'zidan changlatilgan makkajo'xori tizmalarini gektariga 55-60 ming tupdan o'simlik joylashtirishni tavsiya qiladi.

Stavropol o'lkasi sharoitida, urug'chilik usuliga qarab, ertapishar ona-ota tizmalarini namlik yetarli bo'lmagan sharoitda joylashtirilishi tavsiya etilgan .

Z.Xaliqulov [1994] ma'lumoticha O'zbekiston O'simlikshunoslik ITI Toshkent viloyatining sug'oriladigan bo'z tuproqlarida olib borgan tajribalariga asoslanib, duragaylar singari ularning ota-onalik tizmalari ham eng yuqori don hosili olish uchun FAO guruhiga bog'liq ravishda turlicha qalinlikda ekilishi mahsuldordir degan xulosaga kelgan.

Makkajo'xori juda serhosil qimmatli ekin. Xalqimizda uni "Dala malikasi" deb atalgani bejiz emas.

1-Jadval

FAO ma'lumotlariga ko'ra dunyo bo'yicha makkajo'xorining ekin maydoni hosildorligi va o'rtacha don yetishtirishi. (2000)

Mamlakatlar nomi	Ekin maydoni, ming ga	Hosildorlik, s/ga	O'rtacha don yetishtirish, mln tonna
Dunyo bo'yicha	137549	43.36	596412
Afrika	25392	16.99	43140
Efiopiya	1450	17.93	2600
Keniya	1400	13.21	1850
Nigeriya	3965	13.81	5476
Shimoliy Amerika	40473	72.56	293673
Meksika	8661	21.66	18761
AQSh	29566	89.03	263216
Janubiy Amerika	17919	30.27	53328
Braziliya	11857	27.46	32556
Osiyo	44236	35.07	143053
Xitoy	22543	45.75	103144
O'zbekiston	25	16.0	40
Yevropa	10587	54.24	57422
Ruminiya	2700	15.56	4200
Rossiya	930	13.44	1250
Avstraliya	58	62.93	365

I.V.Massino va boshqalar tomonidan O‘zbekistonda makkajo‘xori-ning yangi “O‘zbekiston 306 AMV” duragayi yaratilib, tumanlashtirilgandan keyin undan yuqori sifatli duragay urug‘larni yetishtirish urug‘ning sifati va hosildorlik xususiyati yuqori bo‘lishi talab qilinadi.

1.2.Makkajo‘xori seleksiyasi vazifalari va yo‘nalishlari.

Makkajo‘xori ekini seleksiyasi aniq muayyan o‘stirish sharoitlari va mahsulotidan foydalanish usullarini hisobga olgan holda ko‘p yo‘nalishlarda olib boriladi (don, silos, yashil yemish va boshq). Makkajo‘xorini har xil muddatlarda pishishiga qarab farq qiladigan va qimmatli xo‘jalik belgilari majmuali duragaylarni yaratish kerak. Eng muhim vazifalardan biri intensiv texnologiyasi asosida o‘stiriladigan yuqori hosilli duragaylarni yaratishdir. (Axmedova S, Turaqulov K.1997, Andrew R.N.2008).

Mahsuldorlikka qaratilgan seleksiya- Makkajo‘xorining hozirgi zamon seleksiyasi geterozis hodisalaridan foydalanishga asoslangan. Bu ekin seleksiyasi o‘zidan changlatilgan insukt liniyalarini chatishtirishdan olingan duragaylarning geterozis samarasiga asoslanib o‘tkazilmoqda.

Donli yo‘nalishdagi turli toifadagi duragaylarning mahsuldorligini oshirish (geterozis darajasini) avvalo hosilni tarkibini aniqlaydigan belgilarni maksimal darajada yaxshilash orqali amalga oshirish mumkin: o‘simlikdagi so‘talar soni, so‘taning kattaligi, so‘tadagi donlar soni va 1000 donning vazni. (Dzyubeskiy B.V. 1988).

Yedenbayev D.(1988) ma’lumoticha makkajo‘xori duragaylarini mahsuldorligini oshirishda ikki so‘tali shakllarga (liniyalarga) katta e’tibor berilmoqda, chunki bir so‘tali duragaylar uz imkoniyatlarini deyarli sarflaganlar.

O‘simlikdagi so‘talar soni va don hosilining kattaligi ob–havo sharoiti noqulay bo‘lgan yillarda ham uning turg‘un bo‘lishi bilan chambarchas bog‘liq, chunki ikki so‘tali shakllarda hosilsiz o‘simliklar bir so‘talilarga nisbatan kamroq uchraydi.

Kimsanov I., Absamatov S. (1998) ikki so'talilikka qaratilgan seleksiya ishida tanlashni ro'vak bilan so'talarni gullash muddatlarini yaqinlashtirishga va bir o'simlikda joylashgan so'talarni gullashidagi oraliqni qisqartirishga qaratilib o'tkazish lozim deb ta'kidlagan.. So'talar sonini ko'payishi hosildorlikni oshirilishga olib kelishi uchun mahsuldorlik elementlari bo'yicha birtekis so'tali liniyalarni tanlash kerak.

Камышан Т.Н. (1990), Enein M., Pleise V. (2006) tamonidan o'tkazilgan tadqiqotlar ko'rsatishicha bir vaqtda ham ikki so'talilik ham boshqa qimmatli xo'jalik belgililikka qaratilgan seleksiya ishiga genetik va fiziologik tusqinliklar yo'q. Shuni e'tiborga olish kerakki, so'talar soni ko'payishi bilan odatda vegetasiya davri cho'ziladi.

Makkajo'xoring ikki, uch va ko'p so'tali shakllari mavjud, bu holda «ko'p so'tali makkajo'xori» degan ibora qo'llanadi. Seleksiya yo'nalishlaridan biri – ko'p so'tali makkajo'xori yaratishdir. Bu yo'nalishdagi seleksiya ishlari hamdo'stlik mamlakatlari va AQSh da o'tkazilmoqda. (Kosimov. M.I.2004)

Tez pisharlikka qaratilgan seleksiya. Makkajo'xoring tez pishar shakllarini shimoliyroq hududlarga ekilishini siljitish va ayniqsa O'rta Osiyoda, xususan O'zbekistonda sug'oriladigan yerlardan samarali foydalanish maqsadida, ikkinchi ekin sifatida angizda ekish uchun ahamiyati oshib bormoqda. Tez pishar yuqori mahsuldor va qisqa muddatda pishadigan duragaylarni yaratish don uchun ekiladigan makkajo'xorini maydonini kengaytirib, hosilni keskin ko'tarilishiga olib keladi. (Yejev M.N.2002). O'rta Osiyo sharoitida tez pisharlikni ahamiyati katta bo'lib, bu yerda vegetasiya davri har xil bo'lgan duragaylarni har xil muddatlarda ekib, mavjud texnika va boshqa imkoniyatlardan foydalanish natijasida makkajo'xori donini yetishtirilishini barqarorlashtirish mumkin.

Donning sifatiga qaratilgan seleksiya- Bu sohadagi makkajo'xori seleksiyasining asosiy yo'nalishi – aminokislota tarkibi bo'yicha muvozanatli oqsil sifati yaxshilangan duragaylarni yaratish.

Massino I.V. va boshqalar (2006) m makkajo'xori donida 10–13 % oqsili bo'lib, tarkibida asosan kam miqdorda almashtirib bo'lmaydigan lizin va triptofan aminokislotali kam qimmatli zoin fraksiyasini saqlashini aniqlagan.

Tarkibida oqsil moddasini ko'p saqlaydigan (16–20 %) shakllarini yaratganda tarkibida lizin aminokislotalarini kamayishi kuzatilgan. Shuning uchun makkajo'xoring sifatiga qaratilgan seleksiya 02 va fl 2 mutant genlaridan keng ravishda foydalanishi bilan bog'liq. Bekkross usulida 02 va fl 2 genlari ishtirokida ko'p lizinli liniyalarni yaratish makkajo'xorida 2–2,5 % ga nisbatan 4,5–5 % lizinli 14–16 % oqsil saqlaydigan duragaylar hosil qilishga erishildi.

Ammo bu xildagi duragay ishlab chiqarishga keng tarqalmadi, chunki hosildorligi oddiy duragaylarga nisbatan 10–15 % kam bo'lgan. Buning sababi – lizinli makkajo'xori endospermning unimon strukturali bo'lganligi donning 1000 ta va naturasini pasayishiga ta'siri. (Yedenbayev D.1988).

Moylilikka qaratilgan seleksiya-Tarkibida moy miqdorini ko'p saqlaydigan duragaylarni yaratish–makkajo'xorini chorva mollariga yem–hashak uchun, oziq–ovqat va medisina uchun seleksiyaning istiqbolli yo'nalishi bo'lib hisoblanadi. Ko'p moyli makkajo'xori chorva mollari uchun yuqori energitik oziqa sifatida katta ahamiyatga ega. Makkajo'xori moyining kaloriyaliligi kraxmalga nisbatan 2,5 marta ziyod.

Massino I.V., Axmedova S.M., K.Ashurov(2007) larning tajribalarida makkajo'xori donning tarkibida 3–5 % moy bor, uning 60–80 % mo'rtagiga tug'ri kelishi aniqlangan. Shuning uchun gektaridan ko'p moy olish maqsadida duragaylarni yaratishda yirik murtakli shakllarni tanlash usuli qo'llaniladi. Yirik murtaklilikka qaratilgan seleksiyaning ahamiyati yana shundaki uning tarkibida oqsil, lizin va triptofan ko'proq saqlanadi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha makkajuxori mo'rtagining tarkibida 23,3 % oqsil, 6,1 % lizin va 1,2 % triptofan bor, endospermida esa tegishli 9,5, 1,6 va 0,3 % mavjud. (Kramarev S.M., Bondar V.P., Kovalenko V.D., Andriyenko A.L.2002).

Lixachev.N.I., Borovik A.I. (2002) takidlashicha ko'p yillik (10–15 yil davomida) seleksiya natijasida donning tarkibini o'zgaruvchanligi kuzatilgan. Masalan kam oqsilli so'talarda perikarpiy va qolgan qobiq miqdori 6,67 %, endosperm 88,73 va murtak–9,59 %, ko'p oqsilli so'talarda esa baravariga–7,71 %, 80,37 va 11,93 % ni tashkil qilgan. Ikkala turdagi so'talarning tarkibidagi oqsil miqdori deyarli o'zgarmagan (oqsilning o'zgarishi asosan endospermda kuzatilgan).

Ko'p yillik mashaqqatli izlanishlar natijasida Illinoys universitetining olimlari tomonidan donning tarkibida odatdagi duragaylarga nisbatan moyning miqdori 13,1–14,6 % ga protein esa 10,8–11,2 % ga ko'p saqlaydigan makkajo'xori duragaylarini yaratishga erishdilar.

Olimlarning hisoblaricha 1kg makkajo'xori moyi 8800 kaloriy ajratadi, bu esa 1kg kraxmal energiyasiga nisbatan 2,25 marta ko'p .

Yaratilgan ko'p moyli va ko'p oqsilli nav va duragaylarning odatdagi makkajo'xori hosildorligiga teng yoki undan ko'p bo'lganlarini yaratish xaligacha yechilmagan muammo bo'lib hisoblanadi. Masalan Illinoys universitetida 68 yillik seleksiya ishi natijasida 27 % gacha umumiy oqsilli liniyalari hosil qilingan. Ammo bu liniyalar donining oqsili zeinga boy bo'lib, aminokislotalar tarkibi bo'yicha mutlaqo tenglanmagan. Ko'p oqsilli makkajo'xorining doni mayda, hosili esa odatdagi makkajo'xori liniyalarining 70 % hosilni tashkil qiladi. (Kimsanov I., Absamatov S.1998, M.2006).

Indian universiteti bioximigi Ye.T. Merts va genetik O.Ye. Nelson makkajo'xorining bioximik mutasiyasini baholaganlar. Opa-2 mutant resessiv genini topib tabiatini aniqlaydilar. Bu gen makkajo'xori oqsilida ko'p miqdorda lizin saqlanishini ta'minlaydi. Keyinchalik bu xususiyat – ko'p miqdorda lizin saqlanishi, nasldan – naslga o'tishi aniqlangan. Usha davrdan boshlab AQSh da ko'p lizinli duragay va navlarni yaratish seleksiyasi usullarini ishlab chiqish sohasida keng miqyosda izlanishlar o'tkazilmoqda.

Bundan kechroq davrda yana bir Flouri – 2 genli ko'p lizinli mutasiya

topiladi. (Angelov A.P, Pavlova Ye.1987).

Amerika seleksionerlari oxirgi yillarda odatdagi makkajo‘xori urug‘idagi oqsil 20 % gacha bo‘lgan ko‘p oqsilli o‘zidan changlangan liniya, va duragaylarni ajratib ularni Opak 2 va Flouri 2 mutantlari bilan chatishtirish sohasida katta ishlar olib bormoqdalar. (Xudaykulov A.B., Valiyev R.Z., Xasanov N.X.1984). Amerika qo‘shma shtatlarida makkajo‘xori sohasida izlanishlar quyidagi yo‘nalishlarda o‘tkazilmoqda:

a) yuqori hosildorlik va donining sifati asosiy bo‘lgan mintaqalarda yuqori mahsuldor navlarni yaratish;

b) nav va duragaylarning turli kasallik va zararkunandalarga chidamliligi;

v) hosilni mexanizmlar yordamida yig‘ib olishga mos nav va duragaylarni yaratish makkajo‘xori kombainlarning yangi modeli konstruksiyalarini yaratishga qaratilgan majmuiy izlanishlar;

g) yotib qolishga chidamlilik;

d) makkajo‘xori ekinini joylashtirish hududlarini kengaytirish maqsadida ertapishar navlarni yaratish;

ye) makkajo‘xorining ko‘p lizinli va ko‘p moyli nav va duragaylarini yaratish;

j) yosh mollarni bo‘rdoqiga (cho‘chqa, sigir va boshqa) boqish uchun makkajo‘xori poyasida qand miqdoriga qaratilgan seleksiya ishi;

z) qandli makkajo‘xori donida qand miqdorini ko‘paytirish;(Muhamad Hanif 2009).

Kasallik va zararkunandalarga chidamlilikka qaratilgan seleksiya- Seleksiyaning muhim yo‘nalishlaridan biri makkajo‘xorining kasallik va zararkunandalarga majmuiy chidamli duragaylarini yaratish va ishlab chiqarishga joriy etishdir. (Yejov M.N.2002).

Makkajo‘xori o‘simligida 40 dan ziyod kasallik bo‘lganligi bu muammoni

yechimini ancha qiyinlashtiradi. Bu kasalliklarning ko‘plari turli zamburug‘lar bilan chakiriladi. (Yakushevskiy Ye.S 2000).

Makkajo‘xoriga 25 dan ziyod zararkunandalar shikast yetkazadi, bo‘lardan o‘ta xavflisi – makkajo‘xori yoki poya kapalagi. Uning kurti makkajo‘xorining barglarini, zararlantiradi, donini ichini, poyaning tukimalarini, so‘talarning uqini va so‘ta oyokchalarini yeb shikast yetkazadi, natijada hosildorlik pasayadi, o‘simliklar sinishi va yotib qoladiganligi uchun hosilni mashinalar bilan yig‘ib olish qiyinlashadi. (Huska J 2008).

1.3.Makkajo‘xori seleksiyasi uchun boshlang‘ich material va qo‘llaniladigan usullari.

O‘rta Osiyoning qurg‘oqchilik sharoitida havo qurg‘oqchiligiga o‘ta chidamli shakllari hosil bo‘lgan. Bo‘lar qatorida O‘zbekistonning mahalliy navlaridan Uzbekskaya jeltaya, Uzbekskaya krasnaya va boshqalar. Shu davrni o‘zida Sibir mahalliy navlari o‘ta tezpisharligi va vegetasiya davrida issiqlikka kam talabchan (Minusinskaya navi) ligi bilan ajralib turadi. Mahalliy nav shakllarining ko‘p xillari Moldoviya, Sharqiy va G‘arbiy Gruziyada mavjud. Bu mahalliy navlar asosida bir qancha qimmatli navlar yaratilgan. (Massino I.V., Massino A.I., Ahmedova S.M., Maxmudhodjayev N.M 2004).

Hozirgi zamon seleksiyasida mahalliy navlar qimmatli boshlang‘ich material sifatida foydalaniladi.

VIRdagi makkajo‘xorining jahon koleksiyasida bu ekinning turli shakllari 13 mingdan ko‘p namunalaridan iborat. Kolleksiyaning tarkibi jahonda to‘plangan o‘zidan changlangan liniyalaridan iborat bo‘lib geterozisli duragaylarni yaratish uchun foydalaniladi.

O‘zidan changlatilgan liniyalarni hosil qilish manbalari sifatida turli xildagi yangi duragaylardan navlararo, nav–liniyalararo, oddiy, uch liniyali, qo‘sh liniyalararo, liniyalararo, ko‘p liniyali hamda sentetik navlar (duragay populyasiyalari) – foydalaniladi. (Камышан Т.Н.1990, Hainzelin E.2008).

Roziqov A.(1998) ma'lumoticha oxirgi yillarda o'zidan changlangan liniyalarni hosil qilish uchun boshlang'ich material sifatida rekurrent (periodik) tanlashdan olingan sentetik navlari keng qo'llaniladi.

Yuqori hosilli duragaylarining kelib chiqishi taxlil qilinishi natijasida qator liniyalar takror-takror bo'lib bu duragaylarni yaratilishida qatnashganligi aniqlandi. Masalan, makkajo'xori seleksiyasida ko'p tarqalib qo'llangan quyidagi liniyalar: W64, Oh-43, A-619, A-632, T-22, B-73, B-14, F-2, F-7, Grushevskaya 380 Chernoviskaya-21, DC-9, VIR-40, VIR-44, VIR-38 va boshqalar.

Makkajo'xori seleksiyasi uchun Amargo (Argentina) va Zapalote Chico (Meksika) kasallik va zararkunandalarga chidamli irqlari, uzun so'tali (30 sm gacha) Comiteco va Jala irqlari va juda uzun donli (1,8 sm gacha), Pepitilla va Shalqueno yirik donli (1000 don massasi 1 kg gacha). Perulik Cuzco va Cuzco Gigant, donidan oqsil moddasini aniqlovchi ko'p kavatli aleyron qatlami bo'lgan shakllarini kiritadigan Coroico (Boliviya, Kolumbiya) irqlari va boshqalar katta tug'diradi. Sovuqqa, qurg'oqchilikka chidamli ertapishar irqlari ham aniqlanib ajratib olingan. Amerika qit'asi mamlakatlardan olingan mahalliy irqlardan foydalanish makkajo'xorining genetik fondini ancha boyitishga olib keladi. (Massino I.V.2006 ,Damborsky F 2008).

Boshlang'ich material sifatida bu irqlardan qator ilmiy-tadqiqot institut, muassasalarida, jumladan P.P.Luk'yanenko nomidagi Krasnodar qishloq xo'jalik ilmiy tadqiqot institutida ishlar o'tkazilmoqda. Namunalarning katta to'plamidan neytral fotoperiodik reaksiyali shakllari ajratib olingan. Bu shakllardan foydalanib qimmatli liniyalar hosil qilinadi. (Sotchenko V.S.2002).

Mejlumyan L.G, Raximova Sh.X., Yuldashev P.X (2004) va boshqalar makkajo'xori seleksiyasining asosiy usuli bo'lib ommaviy tanlash hisoblanadi deb takidlaydi. So'ta belgilariga qarab eng yaxshi o'simliklarni tanlash va urug'larini birlashtirib ekishidan kelgusidagi avlodini hosil qilish. Bu usul qo'llanishi natijasida makkajo'xorining bir qancha mashxur navlari yaratilgan.

Bu navlar seleksiya uchun qimmatli boshlang'ich material bo'lib xizmat qilgan.

19 nchi asrning 90 nchi yillarida so'tali tanlash yoki yakka tanlash usuli ishlab chiqiladi. Eng yaxshi so'talar tanlab olinib, har bir so'taning urug'i alohida qatorga ekilib nasliga qarab baholash o'tkazilar edi.

Seleksiyaning ishida sezilarli va katta qadam bo'lib navlararo duragaylash hisoblanadi. Bu usuldan foydalanishda insuxtning ta'siri mustasno, ota-ona shakllarining belgilari hisobga olinadi. Navlar aro duragaylarini hosildorligi bo'yicha taxlil qilganda ularning hosildorligi ota-ona shakllariga nisbatan odatda ko'p farq qilmasligi, ayrim holatda 15–20 % gacha oshganligi aniqlandi. (Nichiporovich A.A 1970).

Kimsanov I., Absamatov S. (1998) lar ma'lumoticha geterozisning eng yuqori samarasi o'zidan changlatilgan liniyalarini chatishtirishda kuzatilganligini aniklagan. Bu kashfiyot makkajo'xorining liniyalar aro duragaylash usulini qo'llanishining boshlanishiga makkajo'xori seleksiyasining asosiy yo'nalishini boshlanishiga olib keldi. Oxirgi yillarda duragay makkajo'xori seleksiyasida katta yutuklarga erishildi. Yaratilgan duragaylar donining hosildorligi eski navlarga nisbatan 100 % va undan yuqoriroq.

Makkajo'xorining geterozisli duragaylarini hosil qilish uchun boshlang'ich material sifatida o'zidan changlatilgan liniyalarni hosil qilish hisoblanadi.

Qator makkajo'xori ekadigan mamlakatlarda standart usulini qo'llash natijasida erkin changlanadigan navlardan birinchi sikl liniyalari deb ataladigan liniyalar yaratilgan. Ko'p miqdordagi bu xildagi liniyalar xoligacha seleksiyada keng foydalanib ishlab chiqarish duragaylarining tarkibiga kiradi. (Kramarev S.M., Bondar V.P., Kovalenko V.D., Andriyenko A.L.2002).

Keyinchalik liniyalar hosil qilish uchun boshlang'ich material sifatida oddiy yoki yuqori geterozisli qo'shliniyalararo duragaylaridan foydalanish yaxshi natijalarga olib keladi. Bu usulda yaratilgan liniyalar ikkinchi sikl liniyalari deb ataladi. (Umarov Z., Isakulov U.1991).

Kumulyativ seleksiya – usul sifatida yaxshilangan liniyalarni hosil qilish maqsadida qo‘llaniladi. Standart usulida yaratilgan o‘zidan changlatilgan liniyalarning $S_3 - S_5$ dan keyin kombinasion kabiliyati sinalib, eng yaxshilari tanlab olinadi. Tanlab olingan liniyalar o‘zaro chatishtiriladi. Bu chatishtirishdan olingan duragay o‘simliklari standart usulidan foydalanib yana 3–5 pog‘ona davomida o‘zidan changlatiladi va kombinasion qobiliyatini aniqlash maqsadida tester bilan chatishtiriladi. (Shmarayev G.Ye.1999).

Kombinasion qobiliyati yaxshi bo‘lgan liniyalarda chatishtirish va o‘zidan changlatish bir necha marta takrorlanadi, natijada yuqori hosildorlikni ta‘minlaydigan genlarning ko‘payishi ro‘y beradi. (Angelov A.P, Pavlova Ye.1987).

Qaytariliqli (bekkross) chatishtirish usuli seleksiya ishida mavjud liniyalarni qator belgilarini yaxshilash maqsadida o‘tkaziladi. Masalan donida oqsil, lizin, moy miqdori, ayrim kasalliklarga chidamliligi va boshqalar. (Komarskiy V.Yu., Vartanov A.S 1983).

